

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

RABIYEV BOBOMUROD BAXODIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA AYOL UY XIZMATCHILARI MIGRATSIYASINING
IJTIMOIY OQIBATLARI (SOTSIOLOGIK TAHLIL)**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по социологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
sociological sciences**

Rabiyev Bobomurod Baxodirovich

O'zbekistonda ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari
(sotsiologik tahlil).....

Рабиев Бобомурод Баходирович

Социальные последствия миграции женщин-домашних работниц в
Узбекистане (социологический анализ).....

Rabiev Bobomurod Bakhodirovich

Social consequences of the migration of female domestic workers in
Uzbekistan (sociological analysis).....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

RABIYEV BOBOMUROD BAXODIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA AYOL UY XIZMATCHILARI MIGRATSIYASINING
IJTIMOIY OQIBATLARI (SOTSIOLOGIK TAHLIL)**

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/S174 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.moiti.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduramanov Xamid Xudaybergenovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Azamat Seitov Po'latovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor
Xodjayev Sobir Djumayevich
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat __: __ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi 25-uy. Tel.: (0-371) 267-05-36; faks (71) 267-03-92; E-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com; web-sayt: www.moiti.uz

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi 25-uy. Tel.: (71) 203-01-11 faks: (71) 267-03-92; E-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com; web-sayt: www.moiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ da tarqatildi.

(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

B.B.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Sh.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ayol uy xizmatchilari migratsiyasi muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanib, u ayollarning mehnat huquqlari, ijtimoiy himoyasi va moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, uy xizmatchilari global ishchi kuchining 2,5 foizini tashkil etadi. 2023 yil yakunlariga ko'ra, migrant uy xizmatchilari soni taxminan 11 million kishi bo'lib, ularning 73 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etadi¹. Mazkur holat global mehnat bozorida ayollar mehnatining feminizatsiyasi, uy mehnatining qadrsizlanishi, migrant ayollarning huquqiy himoyasizligi va ularga nisbatan ekspluatatsiya xavfining kuchayishi kabi jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi hamda gender tengligi, adolatli mehnat sharoitlari va samarali ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish zaruratini talab etadi.

Dunyoning yirik ilmiy markazlarida ayol uy xizmatchilarining mehnat migratsiyasi bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va ushbu jarayonni samarali boshqarishga qaratilgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ayol uy xizmatchilari uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, mehnat shartnomalarini qonuniylashtirish, ijtimoiy adolat prinsiplarini ta'minlash, zo'ravonlik va mehnat ekspluatatsiyasiga qarshi institutsional choralar ko'rish, ularning ta'lim va kasbiy malakasiga doir imkoniyatlarini kengaytirish, ayol migrantlarni qabul qiluvchi jamiyatlarda mehnat bozoriga moslashuvi va sotsiomadaniy integratsiyasiga doir ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlarni yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish"², "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da amalga oshirishda oid davlat dasturida "hududlardagi aholi soni va mavjud ishsizlar sonidan kelib chiqqan holda xorijda aniqlangan ish o'rinlarini hududlar kesimida taqsimlash hamda ushbu ish o'rinlari asosida ishga ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni xorijiy tillarga va kasb-hunarga o'qitishni ta'minlash"³ bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Bu borada ayol uy xizmatchilari uchun mehnat shartnomalarini majburiylashtirish, maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish, ijtimoiy himoya bo'yicha kelishuvlarni tuzish, xalqaro sug'urta va oilalarni birlashtirish dasturlarini joriy qilish, ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30-yanvardagi PF-16-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «Yashil iqtisodiyot» yilida

¹ International Labour Migration Statistics Database (2023). Global Trends in Domestic Work and Migration // <https://www.ilo.org>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11-сентябрдаги "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сон Фармонида 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «Яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-16-сон фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.02.2025 й., 06/25/16/0119-сон.

amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024 yil 17-oktyabrda PF-162-son "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2023 yil 11-sentyabrda PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 20-avgustda PF-5785-son "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi farmonlari, 2022 yil 1-martda PQ-149-son "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 30-iyulda PQ-5205-son "Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 5-martda PQ-3584-son "Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun respublika hududidan transport orqali chet elga jo'nab ketish vaqtida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari"ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ayollar migratsiyasi, shu jumladan, migrant uy xizmatchilarining hayoti, jamiyat va mehnat bozoridagi o'rni, oilalarga ta'siri B.Anderson, A.Hochschild, S.Sassen, R.Parrenas, Sh.Razavi, S.Maler, N.Yeys, H.Lutz, N.Shiller, L.Bash va S.Szanton tomonidan o'rganilgan⁴.

Shuningdek migratsiyaning sotsiologik masalalari: O.Kont, M.Veber, E.Dyurkgeym, P.Sorokin, T.Parsons, N.Eliias, K.Levi-Stross, E.Toftler⁵ va boshqalar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan.

⁴ Anderson, B. (2015). Worker, Helper, Auntie, Maid? Working Conditions and Social Identities of Migrant Domestic Workers in Europe. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 41(3), 410–427; Hochschild A.R. (2000). Global Care Chains and Emotional Surplus Value. In W. Hutton & A. Giddens (Eds.), *On the Edge: Living with Global Capitalism* (pp. 130–146). Jonathan Cape; Sassen, S. (2000). Women's Burden: Counter-geographies of Globalization and the Feminization of Survival. *Journal of International Affairs*, 53(2), 503–524; Razavi, S. (2009). Engendering Social Policy: Models, Paradigms and Debates. In S. Razavi (Ed.), *The Gendered Impacts of Liberalization* (pp. 27–52). Routledge; Mahler S.J., & Pessar P.R. (2006). Gender Matters: Ethnographers Bring Gender from the Periphery toward the Core of Migration Studies. *International Migration Review*, 40(1), 27–63; Parreñas, R. S. (2017). *The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age*. Stanford University Press.; Yeates N. (2012). The Global Care Chain: A Theoretical Framework and Empirical Analysis. *Journal of International Migration and Integration*, 13(1), 1–20; Lutz H. (2008). When Home Becomes a Workplace: Domestic Work as an Ordinary Job in Germany? In *Journal of Comparative Family Studies*, 39(4), 595–611; Glick Schiller N., Basch L., & Szanton Blanc C. (1995). From immigrant to transmigrant: Theorizing transnational migration. *Anthropological Quarterly*, 68(1), 48–63.

⁵ Конт О. Курс позитивной философии. В кн. Антология мировой философии. / Т. 3. М.: 1971; Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. - М.: Наука, 1991; Дюркгейм Э. Самоубийство. Социологический этюд. / Пер. с фр.-кого. Под ред. В.А.Базарова. - М.: Мысль, 1994; Знанецкий Ф. Польский крестьянин в Европе и Америке. - М.: 1991; Сорokin П. Человек. Цивилизация. Общество. - М.: Изд-во Политической литературы, 1992; Парсонс Т. Система современных обществ. - М.: Аспект Пресс, 1998; Элиас Н. О процессе цивилизации. Кн. в 2-х томах. - СПб.,

Ayollar mehnat migratsiyasining iqtisodiy muammolari, gender tengsizligi, oilaviy majburiyatlar, ta'lim imkoniyatlari, mehnat bozoridagi talab va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri masalalari MDH olimlaridan N.G.Abdurazakova, M.S.Blinova, A.A.Ilimbetova, A.Agadjanyan, Ye.Gorina, L.Aliyeva, G.Balakina, T.Pavlova, L.Karachurina, Yu.Florinskaya, A.Proxorova, G.Mamasheva, A.Rocheva, Ye.Varshaver, N.Ivanova, S.Ryazansev, T.Rostovskaya, S.Peremishlin, Ye.Tyuryukanova tomonidan ilmiy tadqiq etilgan⁶.

O'zbekistonda ayollar mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, ijtimoiy omillari va oqibatlari T.Narbayeva, L.Maksakova, F.Parmanov, N.Egamberdiyeva, X.Abdusamatov, D.Majidova, X.Abduramanov, Z.Qodirova, S.Djaldasova, D.Ahmedova, N.Akramova, G.Azamatova, Sh.Nurdinova, E.Muhitdinov, S.Gaziyeva tomonidan o'rganilgan⁷.

Университетская книга, 1992; Леви-Стросс К. Структурная антропология. - М.: Академический проект, 2008; Тоффлер Э. Третья волна. - М.: АСТ, 1999.

⁶ Абдуразакова Н.Г. Женская трудовая миграция в контексте глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. - Казань, 2008.; Блинова М.С. Современные социологические теории миграции населения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. - Москва, 2008.; Илимбетова А.А. Социально-экономические последствия женской трудовой миграции в Россию. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва, 2013.; Агаджанян В., Горина Е. Экономический успех женщин-мигрантов в России: объективная реальность и субъективная оценка // Journal of Ethnic and Migration Studies. - 2018. - Т. 45, №13. - С. 2364-2383.; Алиева Л.З. Домашний труд мигранток в Азербайджане и за рубежом: гендерный анализ. — Баку: Научное издательство АН Азербайджана, 2023.; Балакина Г.Ф., Павлова Т.С. Женская трудовая миграция: причины и последствия (на примере Республики Саха (Якутия)) // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. - 2019.; Карачурина Л. Б. Женщины-мигрантки в нише домашнего труда в России // Социологические исследования. 2015. № 5. С. 93-101; Карачурина Л., Флоринская Ю., Прохорова А. Migration and Social Upheaval as the Face of Globalization in Central Asia, Palgrave Macmillan, 2016. - P.109–124.; Мамашева Г.К. Женская миграция из сельской местности Кыргызстана: вызовы и стратегии адаптации. — Бишкек: ИСМИ, 2022.; Рочева А., Варшавер Е., Иванова Н. Беременность, роды и здоровье женщин – трудовых мигрантов из Центральной Азии в России // Population and Economics. - 2021. - Т.5, №4.; Рязанцев С.В., Ростовская Т.К., Перемышлин С.Н. Гендерные аспекты трудовой миграции в России: тренды, последствия, регулирование. // Женщина в российском обществе, №4. - Москва, 2019. - С.53–65.; Тюрюканова Е.В. Женщины-мигранты в нише домашнего труда в России. // Журнал исследований социальной политики, Т. 13, №3. - Москва, 2015. - С.397–408.; Тюрюканова Е.В. Женщины-мигрантки: проблемы интеграции и дискриминации на рынке труда в России. // Вестник общественного мнения, №2. - Москва, 2011. - С.89–97.; Флоринская Ю.Ф. Женщины — наемные работницы в домохозяйствах Москвы и Санкт-Петербурга. // Демографическое обозрение, Т. 9, №4. - Москва, 2022. - С.60–79.

⁷ Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновация модели. Социология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2020; Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. - Т.: Эльдур, 2000. - 116 с.; Парманов Ф.Я. Миграция жараёнлари: трансформацияси ва интеграциялашув тенденциялари / Социология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. - Т.: Давлат бошқаруви академияси, 2021; Эгамбердиева Н., Абдусаматов Х., Маждидова Д. Оилалар барқарорлигига меҳнат миграциясининг таъсири. Илмий-методик қўлланма. - Т.: Маҳалла ва оила нашриёти, 2023. - 152 б; Абдураманов Х.Х., Джалдасова С.Д., Қодирова З.А. Аёллар меҳнат миграциясининг ҳуқуқий, ижтимоий ва иқтисодий жиҳатлари. Услубий қўлланма. - Т.: “Маҳалла ва оила” нашриёти, 2023. - 139 б.; Исраилова Д.К. Ўзбекистонда ташқи меҳнат миграциясини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2023. - 74 б.; Ахмедова Д.О. Ўзбекистонда хотин-қизлар меҳнат миграциясининг ижтимоий омиллари. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2023; Акрамова Н. Феминизация трудовой миграции из Узбекистана в Турцию: роль женщин в динамике миграции // Central Asian Survey. - 2024.; Азаматова Г.Б. Ўзбекистонда хотин-қизларнинг меҳнат миграцияси тарихи (1991-2021 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2024. - 57 б.; Нурдинова Ш. Миграциянинг феминизациялашуви: Туркиядаги ўзбек мигрантлар // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 2021. - №2 (13); Муҳитдинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясининг роли. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2019.; Газиева С.С. Рақамлаштириш шароитида халқаро меҳнат миграцияси жараёнларини тартибга

Bu olimlarning ilmiy asarlarini tahlil etish O'zbekistonda ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini o'rganish yuzasidan mukammal tadqiqotlar o'tkazilmaganini ko'rsatdi, bu esa ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasining ijtimoiy muammolarini chuqur ilmiy tadqiq etish zarurligini talab etdi va o'z navbatida tadqiqot mavzusining tanlanishini, dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini, strukturasiining mantiqiyiligini belgilab berdi.

Dissertatsiya mavzusining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Oila va gender ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ayollar ichki va tashqi mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini sotsiologik tahlil qilish va ularning shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy hayotga ta'sirini aniqlash hamda ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

ayol uy xizmatchilari migratsiyasining genezisi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

sotsiologik ilmiy maktablarning ayol uy xizmatchilari migratsiyasiga doir nazariy yondashuvlarini tahlil qilish;

uy ishlarini tasniflash hamda ayol uy xizmatchilari migratsiyasining sabab va oqibatlarini aniqlash;

ayol uy xizmatchilari migrantlarining ijtimoiy portreti tuzish;

ayollar uy xizmati migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini sotsiologik baholash; xorijiy mamlakatlarning ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali tashkil etish bo'yicha tajribalarini o'rganish, ularning ijobiy tajribalarini umumlashtirish;

ayol uy xizmatchilari migratsiyasini boshqarishning samarali shakllari, usullari va vositalarini tahlil qilish;

ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti O'zbekiston ayol uy xizmatchilari migratsiyasi jarayoni va uning oqibatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tizimli tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kontent-tahlil, ma'lumotlarni tasniflash va taqqoslash, tizim-tarkib, sotsiometrik, sotsiologik so'rovnoma, tarixiy, statistik, qiyosiy va sotsiomadaniy tahlil usullari qo'llaniladi, shuningdek o'rganilayotgan muammoning turli jihatlarini ko'rib chiqishga imkon beradigan miqdoriy va sifat usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ayol uy xizmatchilari migratsiyasining oila tuzilmasiga, bolalar tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlarga va gender tengligiga ta'sirini "migratsiya–oilaviy munosabatlar–ijtimoiy institutlar" konseptual uchburchagi asosida uning ijtimoiy oqibatlarini nazariy jihatdan sotsiologik asoslantirilgan;

migrant ayollarni qabul qiluvchi jamiyatdagi moslashuv va integratsiya darajasini ijtimoiy-psixologik, madaniy, baholash mezonlari ayollarning til bilimi, huquqiy xabardorligi, ijtimoiy aloqalari, madaniy, huquqiy, munosib ish o'rniga ega bo'lish ko'rsatkichlar asosida ish va daromad, xizmatlardan foydalanish, moliyaviy mustaqillik, qadryat va me'yorlarni bilish, ijtimoiy aloqalar, kasbiy tayorgarlik kabi baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

migrant ayollarning demografik holati, qaysi mamlakatdan kelishi va qaysi mamlakatning qabul qilishi, motivatsiya, migratsiya sabablari, uchrashish usul, mehnat sharoitlari va jamiyatdagi mavqeini qamrab oluvchi ayol uy xizmatchisining sotsiologik portreti ishlab chiqilgan;

global migratsiya sharoitida ayol uy xizmatchilarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etishga yo'naltirilgan assimilyatsiya (xalqqa qo'shilib ketish), multikulturalizm (kichik madaniyatlarni rivojlantirish) va integratsiyalashgan model (mamlakatning qonun, tartib-qoidasiga amal qilish) negizida tub aholining migrantlarga ijtimoiy tasir samaradorligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Ayollar mehnat migratsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan asosiy ijtimoiy muammolar aniqlangan va tizimlashtirilgan;

xorijiy mamlakatlarning ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqilgan;

ayol mehnat migrantlari ishtirokida shakllanayotgan "transmilliy oila" fenomenining farzand tarbiyasidagi uzilishlar, oila mustahkamligiga tahdid qiluvchi ijtimoiy omillar va gender rollaridagi transformatsiya jarayonlari sotsiologik asoslantirilgan;

ayol uy xizmatchilarining huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop yetilgan maqolalar, so'rovlar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy yetilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot migratsiya jarayonlari, gender munosabatlari va ijtimoiy himoya sohasidagi mavjud ilmiy bilimlarni boyitishga, mehnat muhojirlari uchun ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishga, mehnat va gender tengligiga oid yangi nazariy va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga hamda milliy va xalqaro miqyosda migratsiya siyosatini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ayol uy xizmatchilari uchun mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat bozorini tartibga

solish, qonunchilikni rivojlantirish, xalqaro tajribani joriy etish, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, ishga joylashtirish imkoniyatlarini oshirish, maslahat xizmatlarini kuchaytirish hamda jamoatchilik orasida xabardorlikni oshirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlariga doir olib borilgan tadqiqot ishi natijalari asosida:

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari (oila tuzilmasiga, bolalar tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlarga va gender tengligiga ta'siri) nazariy jihatdan asoslangan "migratsiya–oilaviy munosabatlar–ijtimoiy institutlar" konseptual uchburchagi JHBL-97 – "Ayollar ichki va tashqi mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari" nomli amaliy loyihaning hisobotini tayyorlashda foydalanilgan (Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining 2025 yil 5-apreldagi 21-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ayol uy xizmatchilariga oid muammolarni kompleks, ko'p darajali va tizimli tarzda tahlil qilish imkonini bergan;

ayol uy xizmatchi migrantlarning yosh, ta'lim darajasi, oilaviy ahvoli, migratsiya sabablari, mehnat sharoitlari va jamiyatdagi mavqeini qamrab olgan ijtimoiy portreti "Xotin-qizlarning o'z ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, hayotdagi orzu-umidlari, murakkabliklar va istiqbollarini idrok etish" mavzusida sotsiologik so'rovni haqiqiy hayotiy kontekstda tuzishda, javoblarni to'g'ri segmentlashda va maqsadli tahlil qilishda foydalanilgan ("Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2025 yil 11-apreldagi 01-16/76-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ayollarga oid muammolarni kompleks, ko'p darajali va tizimli tarzda tahlil qilish imkonini bergan;

migrant ayol uy xizmatchilarni qabul qiluvchi jamiyatdagi moslashuv va integratsiya darajasini baholash mezonlaridan "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5667-son farmonining 2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Markaz tomonidan 2025 yilda respublikaning barcha ma'muriy-hududiy birliklarida "Xotin-qizlarning o'z ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli, hayotdagi orzu-umidlari, murakkabliklar va istiqbollarini idrok etish" mavzusida o'tkazilgan sotsiologik so'rovda ilk bor eksperimental tarzda foydalanildi ("Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2025 yil 11-apreldagi 01-16/76-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, gender va migratsiya sohalarida maqsadli so'rovnomalarni rivojlantirish, jamiyatdagi integratsiya jarayonlarini kuzatib borish imkonini bergan.

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining oilaviy munosabatlar, gender tengsizligi, ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiy o'zgarishlarga ta'sirini tizimli tahlil qilish asosida taklif etilgan migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo'yicha integratsiyalashgan modeli "Oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini va bandligini oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha yo'l xarita"ning 30-bandi ijrosini ta'minlashda

foydalanilgan (Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining 2025 yil 5-apreldagi 21-sonli ma'lumotnomasi). Natijada migratsiyaning ijtimoiy oqibatlarini aniqlash va ularni yumshatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini bergan hamda davlat, jamiyat va oila darajasida ijtimoiy yechimlarni shakllantirishga ilmiy asos yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 5 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda, 3 ta nufuzli xorijiy jurnallarda, 5 ta xalqaro konferensiya 3 ta respublika miqyosida tashkillashtirilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, obyekti, predmeti va metodlari asoslangan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayol uy xizmatchilari migratsiyasini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ayol uy xizmatchilari migratsiyasining genezisi va rivojlanish bosqichlari, sotsiologik ilmiy maktablarning ayol uy xizmatchilari migratsiyasiga doir nazariy yondashuvlari, uy ishlari tasnifi va ayol uy xizmatchilari migratsiyasining sabab va oqibatlari keltirilgan.


Ayol uy xizmatchilari migratsiyasi jahon iqtisodiyoti, ijtimoiy munosabatlar va gender rollari evolyusiyasi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Ushbu fenomenning genezisi turli sivilizatsiya davrlarida ayollarning mehnat bozoridagi o'rni, ijtimoiy tuzilmalar va mehnat shart-sharoitlari bilan belgilangan.

Uy xizmatchilari migratsiyasi turli fanlar tomonidan tadqiq etilib, olimlar bu jarayonni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy jihatdan tahlil qilganlar. Masalan, sotsiologlar uy xizmatchilar migratsiyasini ijtimoiy jarayon sifatida o'rganib, uning jamiyatga ta'siri, migrantlar integratsiyasi va ularning ijtimoiy holatini, iqtisodchilar mehnat migratsiyasining iqtisodiy oqibatlarini, jumladan, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, migrantlar yuborgan pul o'tkazmalari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini, huquqshunoslar uy xizmatchilarining mehnat huquqlari, ularning huquqiy himoyasi va xalqaro mehnat standartlariga muvofiqligini, antropolog va madaniyatshunoslar esa uy xizmatchilari migratsiyasi jarayonidagi

madaniy moslashuvi, ularning yangi muhitga integratsiyasi va madaniy farqlardan kelib chiqadigan muammolarni o'rganganlar. Bundan ko'rinadiki, uy xizmatchilari migratsiyasi muammosi ko'p qirrali bo'lib, uning turli jihatlari turli fanlar tomonidan ilmiy tadqiq qilinadi.

Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar va olimlar tomonidan berilgan ta'riflardan kelib chiqib "ayol uy xizmatchilari migratsiyasi" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berilgan: "Ayol uy xizmatchilari migratsiyasi – bu xalqaro va milliy mehnat bozori doirasida uy ishlari, bolalar va keksalar parvarishi kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanish maqsadida ayollarning vaqtinchalik yoki doimiy ravishda boshqa hududga yoki mamlakatga ko'chib o'tishi jarayonidir". Bu ta'rif ayol uy xizmatchilari migratsiyasini keng qamrovli tushuntirib, uning asosiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasi faqat iqtisodiy harakat emas, balki keng ko'lamli ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi murakkab jarayon bo'lganligi bois jamiyatdagi muhim ijtimoiy institutlar — oila, ta'lim, mehnat bozori va gender munosabatlariga bevosita ta'sir etadi. Bu ta'sirlarni ilmiy asosda tahlil qilish uchun "migratsiya – oilaviy munosabatlar – ijtimoiy institutlar" konseptual uchburchagi nazariy model sifatida taklif etilgan (1-rasm).




1-rasm. "Migratsiya – oilaviy munosabatlar – ijtimoiy institutlar" konseptual uchburchagi

Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ushbu model ayol uy xizmatchilari migratsiyasiga kompleks sotsiologik yondashuvni taqdim etadi. Unda uch asosiy ijtimoiy maydon – migratsiya, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy institutlar o'zaro bog'liq va ta'sirchan tizim sifatida tasvirlanadi. Bu model ayol uy xizmatchilari migratsiyasining shaxs, oila va jamiyat darajasidagi oqibatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ayollarning mehnat migratsiyasi iqtisodiy jihatdan muhim bo'lsa-da, uning jamiyat, oila va shaxsga ta'siri juda ko'p qirrali va ziddiyatlidir. Bir tomondan, migratsiya oilalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, mehnat bozorida talabni qondirishga hissa qo'shadi va ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi. Ikkinchi tomondan esa, bu jarayon oilalar parchalanishi, farzand tarbiyasiga ta'siri, jamiyatda ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, mehnat

huquqlarining buzilishi va mehnat migrantlarining zaif holatga tushib qolishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.



2-rasm. Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari

Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining oqibatlarini chuqur tahlil qilish uning ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatlashtirish, samarali davlat siyosati va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun muhimdir. Shuning uchun mazkur tadqiqotda ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari tasniflandi (2-rasm).

Sotsiologik ilmiy maktablar ayol uy xizmatchilari migratsiyasini turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilgan: funksionalizm maktabi uni global mehnat taqsimoti va mehnat bozorining talab-ehtiyojlari bilan izohlasa, konflikt nazariyasi migratsiyani iqtisodiy va ekspluatatsiya shakli sifatida baholaydi, feministik yondashuv esa ayollarning mehnat sharoitlaridagi kamsitishlar, patriarxal tizim va uy mehnatining kam baholanishini tanqidiy tahlil qiladi, shu bilan birga, strukturalizm va globallashuv nazariyalari bu jarayonni xalqaro iqtisodiy munosabatlar va davlatlararo siyosiy munosabatlar kontekstida o'rganadi.

Dissertatsiyaning **“Ayollar uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini sotsiologik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda ayollar mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosati yoritilgan, ayol uy xizmatchilari migrantlarining ijtimoiy portreti tuzilgan, ayollar uy xizmati migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari sotsiologik baholangan.

Migratsiya yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlarning O'zbekistonga doir hisobotlari va milliy statistika ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimiz “migrantlarni yuboruvchi” yoki “donor” davlat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ayollar mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tartibga solish doirasida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to'g'risida”gi, “Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida”gi qonunlari fuqarolarning davlat ichkarisi va tashqisida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi va kafolatlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, qator qonunosti hujjatlarida tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi masalalar mustahkamlangan.

“O'zbekiston–2030” strategiyasining 95-maqsadi – tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun ishga joylashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar bilan kelishuvlar sonini 30 taga oshirish, fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillariga o'qitish doirasida 2 mingga xorijiy kompaniyalar bilan kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash tizimini tashkil etish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan, ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish vazifa qilib belgilangan⁸.

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasida mehnat migratsiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida “gender jihatlarini hisobga olgan holda mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ularning ijtimoiy reabilitatsiyasiga ko'maklashish”, “jinslar bo'yicha mehnat migratsiyasi va bo'yicha

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармонида 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.


idoralararo statistikaning shakllantirilishini qo'llab-quvvatlash", "tashqi va ichki migratsiya, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga ta'sirini kompleks tahlil qilish"⁹ vazifalari belgilangan.

Xotin-qizlar mehnat migratsiyasi masalalari 2022–2026 yillarda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha Milliy dasturda ham aks etgan. Xususan, dasturda "chet elga ishlash uchun ketgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, odam savdosining oldini olish"¹⁰ vazifasi belgilangan.

2024 yilning aprel-noyabr oylarida ayol uy xizmatchilari migratsiyasining sabab va oqibatlarini aniqlash ham ijtimoiy portretini tuzish maqsadida Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasining Andijon viloyatidagi 386 nafar ayol uy xizmatchilari o'rtasida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Respondentlarning yosh tarkibi quyidagicha: 18-25 yoshgacha bo'lganlar – 40,1 foiz, 26-35 yoshlilar – 35,7 foiz, 36-45 yoshlilar – 15,3 foiz va 46-55 yoshlilar – 3,9 foizni tashkil qildi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 47,6 foizi – turmushga chiqqan, 24,5 foizi – ajrashgan, 19,2 foizi – turmushga chiqmagan va 7,9 foizi – tul. Ayol uy xizmatchilarining 28,8 foizida – 1 nafar, 29,5 foizida – 2 nafardan, har o'n nafaridan bittasi (10,3%) – 3 nafardan farzandi bor. Respondentlarning ma'lumot darajasi quyidagicha: oliy ma'lumotlilar – 22,9 foiz, o'rta maxsus ma'lumotlilar – 50,3 foiz, o'rta ma'lumotlilar – 26,8 foiz.

Ayol uy xizmatchilarining aksariyati mazkur faoliyatni moddiy yetishmovchilik tufayli boshlaganlarini bildirishdi (3-rasm).



3-rasm. Uy xizmatchisi sifatida ishlashga turtki bo'lgan omillar
(foiz hisobida)

⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 28 майдаги “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида”ги СҚ-297-IV-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5466673>.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-87-сон Фармонида 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.03.2022 й., 06/22/87/0198-сон.

3-rasmdan ko‘rinadiki, so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning beshdan uch qismiga yaqini moddiy yetishmovchilik, beshdan bir qismidan ortig‘i o‘zi yashayotgan joyda ish topa olmaganligi, 14,3 foizi yaqin qarindoshlari/tanishlari xorijda ishlab yurib chaqirtirganligi, har sakkiz nafaridan bittasi (12,8%) farzandlarini kelajagi uchun pul ishlab topish maqsadida, yana shunchasi (12,8%) xorijga ketish istagi bo‘lganligi uchun ayol uy xizmatchisi sifatida faoliyatini boshlagan.

Respondentlarning yarmidan ortig‘i (54,1%) uy xizmatchisi faoliyatini boshlashdan oldin ishsiz va uy bekasi bo‘lgan. O‘zbekistondagi va Turkiyadagi uy xizmatchilarining katta qismi uy ishlarida yordamchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatsa, Rossiyadagilar asosan bola parvarishlash bilan band.

So‘rov natijalaridan ayol uy xizmatchilarning katta qismi (70,1%) kuniga 8-12 soat, har besh nafaridan bittasi (19,1%) 4-8 soat ishlashi aniqlandi. Uy xizmatchilari uzoq soat ishlashi (27,4%) va doimiy bir xillikni (21,7%) faoliyatidagi asosiy qiyinchilik ekanligini bildirdi.

Tadqiqotda ayol uy xizmatchilar migratsiyasining oilasiga ta’siri ham o‘rganildi. Unga ko‘ra, 76,4 foiz ayollarning moliyaviy ahvoli yaxshilangan, 17,2 foizi pul topib, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortgan, har o‘n nafaridan bittasi (9,6%) farzandlarining tarbiyasi buzilganini ta’kidlagan.

Ayol uy xizmatchilarining aksariyati (29,9%) o‘z vataniga qaytib kelganidan so‘ng biznes boshlash, har besh nafaridan bittasi (19,7%) chet elga qaytib ketish, 19,1 foizi oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga topshirish, 17,2 foizi mazkur faoliyatni yana davom ettirish istagini bildirgan.


Rossiyadagi uy xizmatchilarining 44,5 foizida ishlash huquqini beruvchi hujjatlari mavjud emas, Turkiyada esa deyarli barcha respondentlar ishlash huquqini beruvchi hujjatlarga ega.

Respondentlarning 85,7 foizi ish beruvchi bilan yozma shartnoma imzolamagan. Tadqiqotda shartnoma tuzmaslik sabablari o‘rganilganda respondentlarning katta qismi (64,5%) ularga shartnoma kerak emasligini ta’kidlashgan. Shuningdek, 14,5 foiz holatda ish beruvchining shartnoma tuzishini istamasligini, 13,1 foiz uy xizmatchilari noqonuniy ravishda migrant bo‘lganligi sababli shartnoma tuza olmasligini ma’lum qilgan.

Uy xizmatchilari uchun eng keng tarqalgan yashash turi – bu ish beruvchining uyida yashash hisoblanadi. Rossiyada bu ko‘rsatkich 42,8 foizni, Turkiyada 55,8 foizni va O‘zbekistonda 68,6 foizni tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib “ayol uy xizmatchi migranti”ning ijtimoiy portreti tuzildi. Unga ko‘ra, *ayol uy xizmatchi migranti – 25-45 yoshdagi, o‘rta va o‘rta maxsus ma’lumotga ega, moddiy ehtiyoj va oilaviy majburiyatlar tufayli xorijga chiqib, mehnat muhofazasi va huquqiy himoyasiz sharoitda uy tozalash, bolalarga qarash yoki qariyalarga xizmat qilish bilan shug‘ullanayotgan, mehnat shartnomasini aksariyat holda rasmiylashtirilmagan, jamiyatdagi mavqei past, lekin o‘z oilasi uchun iqtisodiy tayanch vazifasini bajarayotgan, ehtiyojlarini bildirish imkoniyati cheklangan, ijtimoiy ko‘rinmas ayol timsolidir.*

Tadqiqotda ayol uy xizmatchilari o‘rtasidagi asosiy muammolardan biri – bu shu mamlakat muhitiga moslasha olmaslik ekanligi aniqlandi (4-rasm).



4-rasm. Ayol uy xizmatchilarining migratsiya jarayonidagi ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklari ¹¹, foiz hisobida

4-rasmdan ko‘rinadiki, ayol uy xizmatchilarida migratsiya jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar muhitga moslasha olmaslik, mahalliy tilni va madaniyatni bilmaslikni, 2,5 foizi turar-joy muammosini, 2,0 foizi o‘zini yolg‘iz, himoyasiz his qilganini, 2,5 foizi sog‘likni tiklashni, 2,0 foizi boshqa turdagi muammolarni qayd etib o‘tishgan.

Tadqiqotda ayol uy xizmatchi mehnat migrantlarining qabul qiluvchi jamiyatdagi moslashuv va integratsiya darajasini aniqlash maqsadida kompleks baholash mezonlaridan foydalanilgan. Har bir mezon Laykert shkalasi bo‘yicha 1 dan 5 gacha baholanib, umumiy integratsiya indeksi aniqlangan.

1-jadval

Migrant ayol uy xizmatchilarini qabul qiluvchi jamiyatdagi moslashuv va integratsiya darajasi

T/r	Mezon nomi	O‘rtacha ball (1–5)	Izohlar
1.	Til va kommunikatsiya	3,2	Ko‘pchilik faqat og‘zaki suhbatlasha oladi, yozishda qiynaladi.
2.	Mehnat muhitiga moslashuv	3,5	Katta qismi og‘zaki kelishuv bilan ishlaydi, ba’zilari shartnoma bilan.
3.	Ijtimoiy aloqalar	3,1	Ish joyida muloqot bor, lekin mahalliy jamiyat bilan chegaralangan.
4.	Madaniy moslashuv	3,7	Madaniyatni hurmat qiladi, lekin barcha urf-odatlariga to‘liq moslasha olmagan.
5.	Huquqiy himoyadan foydalanish	2,8	Xizmatlar haqida xabardorlik past, faqat eshitgan holda.
6.	Iqtisodiy barqarorlik	3,6	Ko‘pchilik vaqti-vaqti bilan pul yuboradi, lekin muntazam emas.
7.	Psixologik moslashuv	3,0	Yolg‘izlik, stress mavjud, lekin aksariyat psixologik yordam olmaydi.

Tadqiqot natijalari ayol uy xizmatchi mehnat migrantlarining moslashuv va integratsiya indeksi umumiy hisobda 65,4 foizni tashkil qilib, “o‘rtacha darajada” moslashganlik holatini ko‘rsatadi.

¹¹ Rasm muallif tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Tadqiqotda ayollar uy xizmati migratsiyasining ijtimoiy oqibatlaridan oila azolariga, oilaviy munosatlarga, bolalarga tasirini tadqiqot jarayonida o'rganilgan. Unga ko'ra, ayol uy xizmatchilarining 27 foizi farzandlarining motivatsiyasining pasayganini va o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklarni, 30 foizi bolalarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklar bo'lganini ta'kidlagan. Shuningdek, ayol uy xizmatchilarining har to'rt nafardan bittasi (25%) farzandlari xulq-atvorida agressivlik va inijlikni ko'rsatganini bildirgan bo'lsa, besh nafardan bittasi (20%) o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar farzandlarining o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirganini va natijada ularning o'quv jarayoniga qiziqishlari kamayganini bildirgan

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 35 foizi farzandlar parvarishini qarindoshlar, ayniqsa buvi yoki opa-singillar zimmasiga, 20 foizi oiladagi barcha mas'uliyatlar, jumladan, farzandlar tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlari faqat turmush o'rtog'iga yuklatilganini ta'kidlagan. Shu bilan birga, ayol uy xizmatchilarining to'rtidan bir qismi (25%) turmush o'rtog'i uy ishlarining faqat kichik qismini bajarib, qolgan mas'uliyatlarni qarindoshlariga topshirganini bildirgan. Ayol uy xizmatchilarining 25 foizi uyda uzoq vaqt bo'lmaganligi sababli oilada muayyan bo'shliq paydo bo'lganini, 15 foizi uyga qaytganda oilaviy hayotga moslashishning qiyin bo'lganini ta'kidlagan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali boshqarish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy mamlakatlarning ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali tashkil etish bo'yicha tajribalari keltirilgan, ayol uy xizmatchilari migratsiyasini tartibga solish shakllari, usullari va vositalari taklif etilgan, ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali boshqarishning ijtimoiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasini samarali boshqarish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Singapur tajribasi asosida uy xizmatchilari uchun maxsus litsenziyalash tizimini joriy qilish;
- Filippin, Shri-Lanka va Nepal mamlakatlari tajribasi asosida ayollar uchun majburiy tayyorlov kurslarini joriy qilish;
- Shri-Lanka tajribasi asosida migratsiyaga chiqishni xohlayotgan ayollarning oilaviy holati — farzandlari, qarindoshlari, nogiron a'zolar, oilaviy majburiyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini o'rganish;
- AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, ayol uy xizmatchilari uchun xorijda ishlash davrida ijtimoiy sug'urta joriy qilish;
- Saudiya Arabistoni tajribasidan kelib chiqib, ayol uy xizmatchilari uchun maxsus ishonch telefonlarini tashkil etish.

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasi jahon miqyosida keng tarqalgan hodisa bo'lib, ular ko'pincha mehnat bozoridagi norasmiy ish bilan bandlik, ijtimoiy himoyaning yo'qligi, ekspluatatsiya va zo'ravonlikka uchrash xavfi kabi muammolarga duch keladi. Shu sababli, yuqoridagi muammolarni yumshatish va bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuvni talab qiladigan innovatsion model ishlab

chiqish dolzarbdir. Shundan kelib chiqib tadqiqotda ayol uy xizmatchilari migratsiyasi oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo'yicha integratsiyalashgan model ishlab chiqilgan. Modelning maqsadi ayol uy xizmatchilari migratsiyasining salbiy ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish, ularning huquqlari, ijtimoiy himoyasi va oilaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida davlat, jamiyat va oila darajasida birgalikda ishlaydigan integratsiyalashgan tizimni shakllantirishdan iborat.


Ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali tashkil etish uchun huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish kerak (5-rasm).

Uy xizmatchilari sifatida xorijiy davlatlarga ketuvchi ayollarning huquqiy himoyasini ta'minlash, ular uchun xavfsiz mehnat muhitini yaratish hamda mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish juda muhimdir. Bu jarayonda qonunchilik va institutsional bazani takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonda uy mehnati bilan shug'ullanuvchi ayollar soni yil sayin ortib bormoqda. Biroq, uy xizmatchilari mehnat huquqlarini himoya qilish borasida hanuzgacha aniq huquqiy kafolatlar va xalqaro standartlarga mos qonunchilik tizimi shakllanmagan. Xalqaro mehnat tashkilotining 189-Konvensiyasi "Uy mehnatchilariga munosib mehnat shartlarini ta'minlash to'g'risida" qabul qilingan bo'lib, u uy xizmatchilari mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu hujjatni ratifikatsiya qilish O'zbekistonning mehnat qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, uy xizmatchilari va ish beruvchilar o'rtasida mehnat shartnomalarining majburiyligi ta'minlanadi, xorijda ishlayotgan uy xizmatchilari xalqaro standartlar asosida himoya qilinadi, uy xizmatchilari ijtimoiy sug'urta tizimiga kiritiladi va pensiya, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, uy xizmatchilariga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan maxsus qonunlar va javobgarlik choralari qabul qilinadi, mehnat muhojirlarining huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro shartnomalar va bitimlar imzolaniadi.

Xorijda ishlashni rejalashtirayotgan ayollar uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Maxsus tayyorgarlik kurslarining asosiy maqsadlari malaka va ko'nikmalarni oshirish, huquqiy himoyani kuchaytirish, ijtimoiy himoya va xavfsizlik choralari, qabul qiluvchi mamlakatlar talablariga mos tayyorgarlik hisoblanadi.

Ayol uy xizmatchilari uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini kasbiy malaka markazlari, mehnat va ijtimoiy himoya organlari bilan hamkorlik qilish tashkil qilish kerak. Kurslarni tugatgan ayollarga maxsus sertifikatlar beriladi. Bizning fikrimizcha, turli imkoniyatlarga ega bo'lgan ayollar uchun o'quv dasturlarini internet orqali ham tashkil etish mumkin. Bunda XMT, BMT va migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotlarning ta'lim dasturlaridan foydalanish kerak.



3.5-rasm. Ayol uy xizmatchilari migratsiyasini samarali boshqarish mexanizmlari

Ayol uy xizmatchilari uchun maxsus tayyorgarlik kurslarining yo'nalishlari

T/r	Asosiy yo'nalish	Yo'nalishlar
1.	Til va madaniyat o'rganish	Qabul qiluvchi mamlakat tili (asosiy so'zlar va frazalar)
		Qabul qiluvchi mamlakatdagi urf-odatlar va madaniy me'yorlar
2.	Kasbiy malaka va mahoratni oshirish	Uy tozalash va sanitariya qoidalari
		Ovqat tayyorlash va parhez bop ovqatlar
		Bolalar va qariyalarga qarash
		Birinchi tibbiy yordam ko'nikmalari
3.	Mehnat muhofazasi va xavfsizlik	Mehnat muhofazasi qoidalari
		Texnik xavfsizlik
		Evakuatsiya va yong'in xavfsizligi
4.	Huquqiy savodxonlik	Migratsiya jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan xatarlar va ularning oldini olish
		Xalqaro mehnat qonunchiligi va mehnat muhojirlarining huquqlari
		Ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzish qoidalari
		Zo'ravonlik va ekspluatatsiya holatlarida himoya mexanizmlari

Ayol uy xizmatchilari uchun maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil etish natijasida ular ko'proq maosh to'laydigan va yaxshi mehnat shartlariga ega ish joylarini topish imkoniga ega bo'ladi, ayollar o'z huquqlarini bilish, o'zini himoya qilish, mehnat qonunchiligini buzish holatlariga qarshi kurashish imkoniga ega bo'ladi.

Ayol uy xizmatchilari, ko'p hollarda ishlash uchun chet elga chiqishdan oldin va mehnat jarayonida yetarli ma'lumot va huquqiy himoya vositalaridan mahrum bo'ladilar. Bunday muhojirlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ishga joylashishni osonlashtirish va xavfsiz mehnat muhitini ta'minlash maqsadida maxsus veb-sayt va mobil ilova yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu platforma ayol uy xizmatchilari uchun zarur ma'lumotlarni yetkazish, ularni qonunchilik va mehnat shartlari bilan tanishtirish, ish beruvchilar bilan bog'lash va huquqiy yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Migratsiya agentligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 30 ga yaqin mamlakati bilan tashkil etilgan ish bilan ta'minlash masalalarida hamkorlik to'g'risidagi bitimlarga ega, ular orasida Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni, BAA, Turkiya va boshqa mehnat migrantlarida talab yuqori bo'lgan davlatlar ham bor.

Numbeo'ning yangilangan ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi bo'yicha mamlakatlar reytingida O'zbekiston 94 mamlakat ichida 82-o'rinni egallagan. Mamlakatda sof ish haqi 368 AQSh dollarini tashkil qilgan. Reytingda

Turkiya 58-o‘rinni (627dollar), Qozog‘iston 61-o‘rinni (592 dollar) va Rossiya 64-o‘rinni (554 dollar) egallagan.

Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilning yakunida respublika bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5,3 mln.so‘m bo‘lgan¹².

Mehnat migrantlari yuborgan pullar uzoq yillardan beri O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rin tutib keladi va aholi turmush xarajatlarining sezilarli qismini qoplaydi. Xususan, 2023 yilda mamlakatga 11,4 mlrd dollarlik pul o‘tkazmalari kirib kelgan. Bu yalpi ichki mahsulotning 12,5 foizdan ko‘proq qismini tashkil etadi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hisob-kitoblariga ko‘ra, chet elda ish bilan ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari Rossiya (55%), Qozog‘iston (10,4%), Turkiya (6,3%) va Janubiy Koreya (3,6%) bo‘lib qolmoqda.

Rossiya qonunchiligiga migrantlar uchun qattiq talablarning kiritilayotgani, migrantlar huquqlarining ta‘minlanganlik darajasining ancha pastligi mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishni taqozo etyapti. Hozirda Germaniya, BAA, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Isroil, Rossiya kabi davlatlarda o‘zbekistonlik ayollar uy xizmati sohalarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Yaqin kelajakda dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan, ayniqsa demografik keksayish kuzatilayotgan g‘arb davlatlari bilan shartnomalar imzolash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari boyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar berildi:

1. Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini o‘rganishga doir nazariy va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida migratsiyani faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki uning oilaviy munosabatlar, ijtimoiy institutlar, shaxsiy qadriyatlar va madaniy identifikatsiyaga ko‘rsatayotgan ta‘siri nuqtai nazaridan o‘rganish zarurligi aniqlandi. Muallif ayol uy xizmatchilari migratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni – oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi, bolalarni nazoratsiz qolishi, ijtimoiy izolyatsiya, shaxsiy qadriyatlarning o‘zgarishi, ruhiy bosim va madaniy moslashuv muammolari kabi kompleks holatlarni to‘liq qamrab oluvchi ijtimoiy fenomen sifatida qarashni taklif etdi.

2. Sotsiologik ilmiy maktablar tomonidan ayol uy xizmatchilari migratsiyasiga doir nazariy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida mazkur jarayonga faqat mehnat harakati emas, balki ijtimoiy tuzilmalardagi tengsizlik, gender rollari, institutsional kamsitish va shaxsiy identifikatsiyaning o‘zgarishi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi aniqlandi.

3. Xorij mamlakatlarida ayol uy xizmatchi migrantlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish borasidagi amaliyotni o‘rganish natijasida ushbu mamlakatlarda uy xizmatchilarga nisbatan maxsus huquqiy mexanizmlar, kasbiy ta‘lim dasturlari,

¹² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59655-nominal-hisoblangan-o-rtacha-oylik-ish-haqi-2024-yil-yanvar-mart-5>

moslashuv markazlari va reintegratsiya xizmatlari orqali ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini samarali hal etish imkoniyati yaratilgani aniqlandi. Dissertant tomonidan xorijiy tajribaning ijobiy jihatlari asosida O'zbekiston sharoitida ayol uy xizmatchilari migratsiyasiga tayyorgarlik jarayonlarini tizimlashtirish, xorijdagi faoliyati davomida huquqiy, psixologik va madaniy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, qaytib kelgach ularni jamiyatga moslashtirishga qaratilgan mexanizmlarni yaratish boyicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. O'zbekistonda ayollar mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosati tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi chora-tadbirlar asosan umumiy migratsiya masalalariga yo'naltirilgan bo'lib, ayol migrantlarning mehnat faoliyatidagi genderga xos muammolari – huquqiy himoyaning yetarli emasligi, mehnat sharoitlarining norasmiyligi, ruhiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, moslashuv va reintegratsiyadagi to'siqlar kabi masalalarni qamrab olmaydi. Shu bois, ayollar mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosatida gender sezgir yondashuvni shakllantirish, xorij tajribasidan foydalangan holda ayol migrantlar uchun maxsus dasturlar va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

5. Globalashuv ta'siri internet va ommaviy madaniyat ko'plab shaxslarda "gibrid madaniy identifikatsiya"ni yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Migratsiya tufayli boshqa mamlakatda yashovchi o'zbeklar uchun madaniy identifikatsiya saqlanishi va o'zgarishi dolzarb masalaga aylangan. Uzoq yillik migratsiya oqibatida madaniy identifikatsiya muayyan xususiyatlar o'zgarib, fuqarolik identifikatsiyasining shakllanishiga olib keladi. Hozirgi kunda ko'p millatli davlatlarda Turkiya va Rossiyada migrantlar orasida fuqarolik identifikatsiyasi ikkilamchi yoki "gibrid" shaklda bo'lishi kuzatilmoqda.

6. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, migratsiyaning obektiv omili sifatida moddiy manfaatlar ko'rsatilsa, subektiv jihatdan esa hayot tarzini o'zgartirish istagi, turk madaniyati va tiliga bo'lgan qizizish hamda "baxt izlab" yurti tark etish kabi omillar aniqlandi.

7. Tadqiqotda sotsiologik so'rovlar asosida ayol uy xizmatchilari migratsiyasining oila tuzilmasiga salbiy ta'siri, bolalarning nazoratsiz qolishi, ota-onalarning funksiyalarining nomutanosib taqsimlanishi, migrant ayollarning ijtimoiy yakkalanishi, ruhiy zo'riqishi va mehnat ekspluatatsiyasiga moyil muhitda ishlashi kabi bir qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotgani hamda bu holat jamiyatdagi gender tengsizligini kuchaytirish, ijtimoiy institutlar muvozanatiga ta'sir ko'rsatish singari kompleks ijtimoiy oqibatlarga ega ekanligi aniqlandi.

8. Ayol uy xizmatchilari mehnat migratsiyasidagi huquqiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish maqsadida XMTning "Uy xizmatchilari uchun munosib mehnat to'g'risida"gi 189-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish uy xizmatchilari mehnatini rasmiy tan olish, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro standartlar asosida munosib mehnat sharoitlarini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

9. Tadqiqotda ayol uy xizmatchilari uchun migratsiyaga chiqishdan oldingi bosqichda kompleks tayyorgarlikni tashkil etish, huquqiy, kasbiy, psixologik va madaniy yo'nalishlarda yetarli axborot bilan ta'minlash, shuningdek, xavf-xatarlar

to'g'risida xabardorlikni oshirish – ularning mehnat sharoitida munosib hayot kechirishi, ekspluatatsiya va kamsitish holatlarining oldini olish hamda qabul qiluvchi jamiyatga samarali integratsiyasi uchun muhim strategik yo'nalish sifatida ilmiy jihatdan asoslandi.

10. O'zbekistonda uy mehnati bilan shug'ullanayotgan ayollarning soni, yoshi, faoliyat turlarini aniqlash, ular ishlayotgan mehnat sharoiti, daromad manbalari va ijtimoiy himoya holatini o'rganish, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ularning ehtiyojlari va muammolarini chuqur tahlil qilish, davlat siyosati uchun aniq, ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida ayollar uy mehnati bozorini tizimli va davriy monitoring qilish maqsadga muvofiq. Bu monitoring davlat siyosatini samarali yo'naltirish, ayollar huquqlarini ta'minlash va gender tengligini amaliy hayotda tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

11. Tadqiqotda ayol uy xizmatchilari migratsiyasi jarayonida ko'pincha huquqiy, mehnat, madaniy va ijtimoiy ma'lumotlarga yetarli darajada ega emasligi ularning xavfli sharoitlarda ishga joylashishi, mehnat ekspluatatsiyasi, huquqiy himoyasizlik va psixologik zo'riqish holatlariga duchor bo'lishiga sabab bo'layotganligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib ayol migrantlar uchun mo'ljallangan maxsus veb-sayt va mobil ilova ishlab chiqish, ular orqali ishonchli va maqsadli axborotni doimiy va tezkor ravishda yetkazish imkoniyatini yaratish, onlayn royxatdan o'tish, mehnat shartnomasini tasdiqlash, kasbiy tayyorgarlik kurslarini onlayn o'qish, ayollarning huquq va xavfsizligini ta'minlash tavsiya etiladi.

12. Ayol uy xizmatchilari ishtirokida shakllangan transmilliy oilalarda ijtimoiy bog'lanishni saqlash va oilaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida oilalarni birlashtirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish – farzand tarbiyasidagi uzilishlarning oldini olish, ota-ona munosabatlarini mustahkamlash va migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy dezintegratsiya jarayonlarini yumshatishda ilmiy jihatdan asoslangan samarali mexanizm sifatida tavsiya etiladi.

E'LON QILINGAN ISHLAR ROYXATI SPISOK OPUBLIKOVANNIX RABOT LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I chast, part)

1. Рабиев Б.Б. Перспективы участия домашних работников сферы услуг в Узбекистане // Ж. Экономика и социум. №8 (123 2024) – Москва, 2024. – С.367-374.

2. Rabiev. B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish boyicha Filippin tajribasi // "Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila" xalqaro ilmiy jurnali. 2024/2 (13). – Toshkent, 2024. – 102-107-b.

3. Rabiev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasining mintaqaviy xususiyatlari // "Sotsiologiya va huquq" ilmiy jurnali. 3 jild 1-son. – Toshkent, 2024. – 73-78-b.

4. Rabiev B.B. Socio-economic aspects of women's domestic service migration// academic research in modern science International scientific-online conference DOI 10.5281/zenodo.13378704 3(32), 30-35, 2024.

5. Rabiev B.B. Uy ishchi xizmatchilarni mintaqalar boyicha migrasiyasi // “Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar to’plami. – Samarqand, 2024. – 291-294 b.

II bo’lim (II chast, part)

1. Rabiev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish boyicha Gonkong tajribasi . // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron ilmiy jurnali. 2023 yil 4-son. – Toshkent, 2023. – 49-57 b.

2. Rabiye B.B., Yuldashev N.A. O‘zbekistonlik ayollar migratsiyasi (Rossiya Federatsiyasi misolida). // Economy and Innovation. Volume: 34/2023. – 82-86-b.

3. Rabiye B.B., Yuldashev N.A. Number of migrants and uzbeks in Japan // Innovations in technology and education. Volume 2 issue 8 SJIF 2023/5 203. – 721-729-b.

4. Rabiev B.B. O‘zbekistonda ayollar uy xizmatini rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar // Universal xalqaro ilmiy jurnal. 2025 yil 2-son. – Toshkent, 2025. – 49-53 b.

5. Rabiev B.B. Xalqaro mehnat taqsimotida ayollar uy ishchi migratsiyasining faoliyat turlari // “Tabiiy fanlarni o’qitish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani maqlolalar to‘plami. 2024 yil 29-may – Andijon, 2024. – 20-23 b.

6. Rabiev B.B, Ayol uy xizmatchilari migratsiyasining rivojlanish bosqichlari// “Sotsiologiya va huquq” ilmiy jurnali. 7 jild 8/1/1-son. – Toshkent, 2025. – 79-84-b.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.21/30.10.2020. PED/S.127.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ СЕМЬИ И ГЕНДЕРА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
СЕМЬИ И ГЕНДЕРА**

РАБИЕВ БОБОМУРОД БАХОДИРОВИЧ

**СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ МИГРАЦИИ ЖЕНЩИН-
ДОМАШНИХ РАБОТНИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ
(СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)**

22.00.02 – Социальная структура, социальные институты и образ жизни

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам**

ТАШКЕНТ – 2025

UDK: 314.15-055.2:64(575.1)

**Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по социологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
sociological sciences**

Rabiyev Bobomurod Baxodirovich

O'zbekistonda ayol uy xizmatchilari migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari
(sotsiologik tahlil).....

Рабиев Бобомурод Баходирович

Социальные последствия миграции женщин-домашних работниц в
Узбекистане (социологический анализ).....

Rabiev Bobomurod Bakhodirovich

Social consequences of the migration of female domestic workers in
Uzbekistan (sociological analysis).....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.21/30.10.2020. РЕД/S.127.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ СЕМЬИ И ГЕНДЕРА
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
СЕМЬИ И ГЕНДЕРА**

РАБИЕВ БОБОМУРОД БАХОДИРОВИЧ

**СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ МИГРАЦИИ ЖЕНЩИН-
ДОМАШНИХ РАБОТНИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ
(СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)**

22.00.02 – Социальная структура, социальные институты и образ жизни

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации доктора философии зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/S174.

Диссертация выполнена в Институте исследований семьи и гендера.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.moiti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Абдураманов Хамид Худайбергенович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Азамат Сеитов Пулатович
доктор социологических наук, профессор
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии (PhD) по
социологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 при Институте исследований семьи и гендера. Адрес: г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Чиланзар, дом 25. Тел.: (71) 203-01-11; факс: (71) 267-03-92; E-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com; веб-сайт: www.moiti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Институте исследований семьи и гендера (зарегистрирована за № ____). Адрес: г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Чиланзар, дом 25. Тел.: (71) 203-01-11; факс: (71) 267-03-92, E-mail: mvaointi@exat.uz, mvaointi@gmail.com; веб-сайт: www.moiti.uz.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года.

(протокол реестра рассылки № ____ от “___” _____ 2025 года).

Н.М.Эгамбердиева

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
педагогических наук, профессор

Б.Б.Мавлонов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по педагогическим наукам
(PhD)

Ш.Содикова

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
социологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Миграция женщин-домашних работниц в мире является одним из важнейших социально-экономических процессов, непосредственно связанного с трудовыми правами женщин, их социальной защитой и финансовой стабильностью. По данным Международной организации труда, домашние работники составляют 2,5 процента глобальной рабочей силы. По итогам 2023 года численность мигрантов-домашних работников составила примерно 11 миллионов человек, более 73 процентов из которых — женщины¹³. Данная ситуация приводит к серьезным социальным последствиям, таким как феминизация женского труда на мировом рынке, обесценивание домашнего труда, отсутствие правовой защищенности женщин-мигрантов и усиление риска их эксплуатации. Всё это требует обеспечения гендерного равенства, справедливых условий труда и формирования эффективных систем социальной защиты.

В крупнейших научных центрах мира проводятся исследования, направленные на устранение социальных проблем, связанных с трудовой миграцией женщин-домашних работниц, и на эффективное управление данным процессом. В частности, особое внимание уделяется созданию достойных условий труда для женщин-домработниц, легализации трудовых договоров, обеспечению принципов социальной справедливости, принятию институциональных мер против насилия и трудовой эксплуатации, расширению возможностей для получения образования и профессиональной квалификации, а также научным изысканиям, касающимся адаптации женщин-мигрантов к рынку труда и их социокультурной интеграции в обществах стран приёма.

В нашей стране особое внимание уделяется повышению эффективности системы управления процессами трудовой миграции, созданию благоприятных условий для граждан, желающих осуществлять трудовую деятельность за рубежом, реинтеграции лиц, вернувшихся из трудовой миграции, включая обеспечение их занятости, повышение профессиональной квалификации и стимулирование предпринимательских инициатив. В Стратегии «Узбекистан – 2030» определены задачи по совершенствованию системы внешней трудовой миграции¹⁴, всесторонней поддержке граждан, работающих за рубежом. В Государственной программе по реализации года «Охраны окружающей среды и зелёной экономики» предусмотрены конкретные меры: распределение выявленных рабочих мест за рубежом с учётом численности населения и количества безработных в регионах, а также обучение граждан, намеренных выехать на работу, иностранным языкам и профессиональным навыкам на основе этих рабочих мест¹⁵. В данном направлении особое значение имеют такие меры, как обязательное заключение трудовых

¹³ International Labor Migration Statistics Database (2023). Global Trends in Domestic Work and Migration // <https://www.ilo.org>.

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармонида 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини «Атроф-мухитни асраш ва «Яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-16-сон фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.02.2025 й., 06/25/16/0119-сон.

договоров для женщин-домашних работниц, организация специальных подготовительных курсов, заключение соглашений по вопросам социальной защиты, внедрение международных программ страхования и воссоединения семей, расширение научных исследований по оказанию социально-психологической помощи.

Диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «Зеленой экономики», от 17 октября 2024 года № УП-162 «О первоочередных мерах по реформированию системы управления миграционными процессами», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030», от 20 августа 2019 года № УП-5785 «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом, и членов их семей», Постановлениях Президента от 1 марта 2022 года № ПП-149 «О дополнительных мерах по поддержке граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом, и членов их семей», от 30 июля 2021 года № ПП-5205 «О дополнительных мерах по поощрению граждан, выезжающих в организованную трудовую миграцию за рубеж», от 5 марта 2018 года № ПП-3584 «О мерах по обеспечению безопасности граждан Республики Узбекистан во время их выезда на транспорте за пределы республики для осуществления временной трудовой деятельности», а также в ряде других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики — II. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Жизнь женщин-мигрантов, включая домашних работниц, их роль в обществе и на рынке труда, а также влияние на семьи изучались Б. Андерсоном, А. Хохшильд, С. Сассен, Р. Парренас, Ш. Разави, С. Малер, Н. Йейтс, Х. Луц, Н. Шиллер, Л. Баш и С. Сзантоном¹⁶.

¹⁶ Anderson, B. (2015). Worker, Helper, Auntie, Maid? Working Conditions and Social Identities of Migrant Domestic Workers in Europe. *Journal of Ethnic and Migration Studies*, 41(3), 410–427; Hochschild A.R. (2000). Global Care Chains and Emotional Surplus Value. In W. Hutton & A. Giddens (Eds.), *On the Edge: Living with Global Capitalism* (pp. 130–146). Jonathan Cape; Sassen, S. (2000). Women's Burden: Counter-geographies of Globalization and the Feminization of Survival. *Journal of International Affairs*, 53(2), 503–524; Razavi, S. (2009). Engendering Social Policy: Models, Paradigms and Debates. In S. Razavi (Ed.), *The Gendered Impacts of Liberalization* (pp. 27–52). Routledge; Mahler S.J., & Pessar P.R. (2006). Gender Matters: Ethnographers Bring Gender from the Periphery toward the Core of Migration Studies. *International Migration Review*, 40(1), 27–63; Parreñas, R. S. (2017). *The Labor of Care: Filipina Migrants and Transnational Families in the Digital Age*. Stanford University Press.; Yeates N. (2012). The Global Care Chain: A Theoretical Framework and Empirical Analysis. *Journal of International Migration and Integration*, 13(1), 1–20; Lutz H. (2008). When Home Becomes a Workplace: Domestic Work as an Ordinary Job in Germany? In *Journal of Comparative Family Studies*, 39(4), 595–611; Glick Schiller N., Basch L., & Szanton Blanc

Кроме того, социологические аспекты миграции в той или иной степени изучались О. Контом, М. Вебером, Э. Дюркгеймом, П. Сорокиным, Т. Парсонсом, Н. Элиасом, К. Леви-Строссом, Э. Тоффлером¹⁷ и другими.

Экономические проблемы женской трудовой миграции, вопросы гендерного неравенства, семейных обязательств, образовательных возможностей, спроса на рынке труда и влияния социальных сетей были научно исследованы учёными СНГ: Н.Г. Абдуразаковой, М.С. Блиновой, А.А. Илимбетовой, А. Агаджаняном, Е. Гориной, Л. Алиевой, Г. Балакиной, Т. Павловой, Л. Карачуриной, Ю. Флоринской, А. Прохоровой, Г. Мамашевой, А. Рочевой, Е. Варшавером, Н. Ивановой, С. Рязанцевым, Т. Ростовской, С. Перемышлыным, Е. Тюрюкановой¹⁸.

Причины, социальные факторы и последствия женской трудовой миграции в Узбекистане были изучены Т. Нарбаевой, Л. Максаковой, Ф. Пармановым, Н. Эгамбердиевой, Х. Абдусаматовым, Д. Мажидовой, Х. Абдурамановым, З. Кодировой, С. Джалдасовой, Д. Ахмедовой, Н. Акрамовой, Г. Азаматовой, Ш. Нурдиновой, Э. Мухитдиновым, С. Газиевой¹⁹.

С. (1995). From immigrant to transmigrant: Theorizing transnational migration. *Anthropological Quarterly*, 68(1), 48-63.

¹⁷ Конт О. Курс позитивной философии. В кн. Антология мировой философии. / Т. 3. М.: 1971; Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. - М.: Наука, 1991; Дюркгейм Э. Самоубийство. Социологический этюд. / Пер. с фр.-кого. Под ред. В.А. Базарова. - М.: Мысль, 1994; Знанецкий Ф. Польский крестьянин в Европе и Америке. - М.: 1991; Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. - М.: Изд-во Политической литературы, 1992; Парсонс Т. Система современных обществ. - М.: Аспект Пресс, 1998; Элиас Н. О процессе цивилизации. Кн. в 2-х томах. - СПб., Университетская книга, 1992; Леви-Стросс К. Структурная антропология. - М.: Академический проект, 2008; Тоффлер Э. Третья волна. - М.: АСТ, 1999.

¹⁸ Абдуразакова Н.Г. Женская трудовая миграция в контексте глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Казань, 2008.; Блинова М.С. Современные социологические теории миграции населения. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Москва, 2008.; Илимбетова А.А. Социально-экономические последствия женской трудовой миграции в Россию. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2013.; Агаджанян В., Горина Е. Экономический успех женщин-мигрантов в России: объективная реальность и субъективная оценка // *Journal of Ethnic and Migration Studies*. – 2018. – Т. 45, №13. – С. 2364-2383.; Алиева Л.З. Домашний труд мигранток в Азербайджане и за рубежом: гендерный анализ. — Баку: Научное издательство АН Азербайджана, 2023.; Балакина Г.Ф., Павлова Т.С. Женская трудовая миграция: причины и последствия (на примере Республики Саха (Якутия)) // *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*. – 2019.; Карачурина Л. Б. Женщины-мигрантки в нише домашнего труда в России // *Социологические исследования*. 2015. № 5. С. 93-101; Карачурина Л., Флоринская Ю., Прохорова А. Migration and Social Upheaval as the Face of Globalization in Central Asia, Palgrave Macmillan, 2016. – P.109–124.; Мамашева Г.К. Женская миграция из сельской местности Кыргызстана: вызовы и стратегии адаптации. — Бишкек: ИСМИ, 2022.; Рочева А., Варшавер Е., Иванова Н. Беременность, роды и здоровье женщин – трудовых мигрантов из Центральной Азии в России // *Population and Economics*. – 2021. – Т.5, №4.; Рязанцев С.В., Ростовская Т.К., Перемышлыкин С.Н. Гендерные аспекты трудовой миграции в России: тренды, последствия, регулирование. // *Женщина в российском обществе*, №4. – Москва, 2019. – С.53–65.; Тюрюканова Е.В. Женщины-мигранты в нише домашнего труда в России. // *Журнал исследований социальной политики*, Т. 13, №3. – Москва, 2015. – С.397–408.; Тюрюканова Е.В. Женщины-мигрантки: проблемы интеграции и дискриминации на рынке труда в России. // *Вестник общественного мнения*, №2. – Москва, 2011. – С.89–97.; Флоринская Ю.Ф. Женщины — наемные работницы в домохозяйствах Москвы и Санкт-Петербурга. // *Демографическое обозрение*, Т. 9, №4. – Москва, 2022. – С.60–79.

¹⁹ Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновация модели. Социология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Т.: Эльднур, 2000. – 116 с.; Парманов Ф.Я. Миграция жараёнлари: трансформацияси ва интеграциялашув тенденциялари / Социология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т.: Давлат бошқаруви академияси, 2021; Эгамбердиева Н., Абдусаматов Х., Мажидова Д. Оилалар барқарорлигига меҳнат миграциясининг таъсири. Илмий-методик

Анализ научных трудов этих ученых показал, что в Узбекистане не проводились комплексные исследования социальных последствий трудовой миграции женщин-домработниц. Это, в свою очередь, потребовало глубокого научного изучения социальных проблем трудовой миграции женщин-домработниц и предопределило выбор темы исследования, цели и задачи диссертационной работы, а также логичность её структуры.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Данное диссертационное исследование выполнено в рамках практического проекта по теме «Правовые, социальные и экономические аспекты внутренней и внешней трудовой миграции женщин» плана научно-исследовательских работ по вопросам семьи и гендера.

Цель исследования заключается в социологическом анализе социальных последствий трудовой миграции женщин-домашних работниц, выявлении её влияния на личную, семейную и общественную жизнь, а также в разработке предложений и рекомендаций, направленных на смягчение социальных последствий трудовой миграции женщин-домашних работниц.

Задачи исследования:

анализ генезиса и этапов развития миграции женщин-домашних работниц;

